




СБОРНИК ТЕЗИСОВ

**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ:
«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
РАЗВИТИЯ ИНФЕКТОЛОГИИ,
МЕДИЦИНСКОЙ ПАРАЗИТОЛОГИИ,
ЭПИДЕМИОЛОГИИ И
МИКРОБИОЛОГИИ»**

4-5 апреля
2023 года
Ургенч



Министерство здравоохранения
Республики Узбекистан

Ташкентская медицинская академия

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

Международная общественная организация
«Евро-Азиатское общество по инфекционным болезням»

Министерство здравоохранения
Республики Каракалпакстан

Федеральное бюджетное учреждение науки
Московский научно-исследовательский институт
эпидемиологии и микробиологии имени Г.Н. Габричевского

**Сборник тезисов международной
научно-практической конференции
«Современные тенденции развития
инфектологии, медицинской паразитологии,
эпидемиологии и микробиологии»**

4-5 апреля 2023 г.

Город Ургенч



ICHAK LYAMBLIOZINI TASHXISLASHDA MINI PARASEP PROBIRKALARINI QO‘LLASH NATIJALARI

Raupov B.D., Karimova M.T., Abidov A.B., Anvarov J.A., Nazirov Sh.A., A‘zamov O.F.
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O‘zbekiston

Dolzarbligi. Ichak lyambliozining dolzarbligini ko‘rsatuvchi jihatlaridan biri uning klinik kechishi turli xil gastroenterologik patologiyalar, OITning funksional buzilishlari, ichak mikroflorasining haddan tashqari o‘shishi sindromi bilan niqoblanganligi bilan bog‘liq, shuningdek malabsorbsiya, vitamin tanqislik holatlari, ayrim bemorlarda esa allergik kasalliklarning: atopik dermatit va oziq-ovqat allergiyasi rivojlanishi bilan kechishi ko‘rsatadi [Belmer S.V., 2008]. Shu bilan birga ichak lyambliozini tashxisni etiotrop tasdiqlanishi murakkabligi muammosi ham tibbiyotning dolzarb muammosidir. An‘anaga ko‘ra, lyambliozni tashxislashning asosiy usuli najas va duodenal suyuqlik tarkibida lyambliya sistalari va/yoki parazitning vegetativ shakllarini aniqlashdir [Gillon J., 2012]. Najas mikroskopiyasi uchun namunalarni yig‘ish uchun Mini-Parasep SF najas konsentratori taklif etilgan bo‘lib, najas namunalarini to‘plash va boyitish uchun yagona yig‘ish flakonini taqdim etadi, u formalin-efir konsentratsiyasi texnikasini almashtirish uchun mo‘ljallangan (formalin-efir o‘rniga etil-asetat qo‘llanilgan) va muntazam ravishda laboratoriyalarda qo‘llanilmoqda. Parazitlarni aniqlashda yuqori samaradorligi tufayli bunday boyitish usuli diagnostika va epidemiologik tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda. Laboratoriya diagnostikasi to‘plami sifatida uning samaradorligi yoki sezgirligi bir qaator tadqiqotlarda isbotlangan (Kitvatanachai, S. 2017). So‘nggi yillarda immunologik tadqiqot usullari ham ishlab chiqildi, ular IFA usuli yordamida najasdagi o‘ziga xos lyambliya antigenlerini yoki qondagi lyambliyaga qarshi ishlab chiqarilgan M va G immunoglobulin antitanachalarini aniqlashga asoslangan. Ammo lyambliya sistalarini aniqlash va spesifik antitanachalarni aniqlash o‘rtasida aniq parallellik yo‘qligini hisobga olgan holda, ushbu usullarning samaradorligi yetarlicha o‘rganilmagan. Bu usullarning har birining diagnostik qiymatini oydinlashtirish katta amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: ichak lyambliozini tashxislashda Mini Parasep probirkalarini samaradorligini o‘rganishdan iborat.

Materiallar va usullar. Ilmiy tadqiqot ishi Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi klinikasi va poliklinikasida 2022 yil may oyidan 2022 yil noyabr oyigacha bo‘lgan muddatda o‘tkazildi. Tadqiqot ishi davomida 45 nafar bemorlarni kuzatdik. Bemorlarning 31 (68,7%) nafarini 3 yoshdan 15 yoshgacha bulgan bolalar tashkil etgan bulsa – A guruh, 14 nafarini 19 yoshdan 45 yoshgacha kattalar tashkil etdi – B guruh.

Natijalar. A guruhimizda 16 (51,6%) nafari o‘g‘il bolalar, 15 (48,4%) nafari qiz bolalar bo‘ldi. B guruhimizda esa 8 (57,1) erakalar, 6 (42,9%) ayollar bo‘ldi. Barcha bemorlar ichak lyamblioziga shubha asosida tekshiruvga yuborilgan. Ichak lyambliozini tashxisi Mini Parasep probirkalariga najas namunasi yig‘ish, keyinchalik ushbu namunani mikroskopiya tekshiruvi asosida qo‘yilgan. Najas namunasini tekshirish shuni ko‘rsatdiki, A guruhimizda, ya‘ni bolalar guruhimizda 5 (16,1%) bemorda enterobioz, 6 (19,3%) bemorda lyamblioz aniqlandi. B guruhimizda, ya‘ni kattalar guruhimizda esa 10 (71,4%) bemorda lyamblioz aniqlandi. Qo‘yilgan tashxis va bemorlardagi asosiy shikoyatlar va klinik belgilar o‘zaro mosligi aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida shuni aniqladikki, biz tekshirgan bemorlarda bolalar orasida lyamblioz 19,3% holatda aniqlangan bo‘lsa, kattalar guruhida bu ko‘rsatkich - 71,4% tashkil etdi. Ichak lyambliozini tashxisi Mini Parasep probirkasi yordamida tashxislash afzalliklaridan biri uning xavfisiz konsentrlangan namunani yig‘ishni ta‘minlashidir. Keyingi tadqiqotlarimizda 3 martalik koproskopiya bilan qiyosiy o‘rganiladi.